

O‘ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti

magistratura talabasi

Ashurov Shuhratbek Qudrat o‘g‘li

O‘zbekiston hozirgi kunda jahon hamjamiyati markazida bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish masalasi dolzarb bo‘lmoqda. Jahon savdo tashkilotining asosiy vazifalaridan biri unga a‘zo bo‘lgan davlatlarning tashqi savdo faoliyatida erkin savdo aylanmalarini ta‘minlashdan iborat. Hozirgi kunda 164 ta (shulardan 160 tasi dunyo hamjamiyati to‘liq tan olgan davlatlar hisoblanadi). Rasmiy tillari ingliz, fransuz hamda ispan tillari hisoblanadi. JST ga a‘zolik qisqa va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Bu jarayon davlatning o‘z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Misol, tariqasida O‘zbekistonni oladigan bo‘lsak, JST ga a‘zolikni kuzatuvchi hisobida boshlanishi mustaqillik yillarining boshlarida amalga oshirilgan bo‘lsada, 2023-yilga kelib ham to‘liq a‘zosi emasdir. Lekin yaqin yillarda JST ga to‘laqonli a‘zo bo‘lish maqsadi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonida maqsad qilib belgilangan. O‘zbekistonning JST ga a‘zo bo‘lishining uzoq muddatga cho‘zilganligining asosiy sababi davlat ko‘rxonalarining iqtisodiyotdagi ulushi yuqoriligi hamda ularning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi sabab bo‘ldi mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu holat mamlakatimizga olib kiriladigan tovarlarning yuqorida darajadagi boj darajasini amalga oshirishga xizmat qildi. Buning ijobiy hamda salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomoni shundaki davlat boshqa davlatlarga iqtisodiy tovarlarni sotib olishda bog‘liqlik munosabatlarini cheklaydi. Shu bilan birga ishchi o‘rinlarini yaratilishiga xizmat qiladi. Qolaversa budjet daromadlarini shakllanishiga xizmat qiladi. Salbiy tomoni sohada sog‘lom raqobat muhitini yo‘qolishiga hamda narxlarning ortib ketishi olib keladi. Shu bilan bir qatorda

iqtisodiy munosabatlarda boshqa davlatlarga bog'liqlik vujudga keladi. Misol tariqasida Qirg'izistonni JST ga a'zo bo'lishining ijobiy hamda salbiy jihatlarini tahlil qilamiz. Ijobiy tomoni narxlarning pastligi hamda raqobatbardosh mahsulotlarning xilma xilligi. Salbiy tomoni esa ushbu davlatning yirik iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlar tomonidan bozor ko'rinishiga olib kelinganligi hamda iqtisodiy tomondan bog'liqligi. Ushbu vaziyatda mamlakatning qarzlari ortib ketishi hamda YaIM ko'rsatkichlari tushib ketishi orqali iqtisodiy xavfsizlik darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Bu tahlil O'zbekiston JST ga a'zo bo'ladigan bo'lsa, Qirg'iziston kabi holatga tushadi degani emas. Birinchidan, Qirg'iziston 1998-yilda a'zo bo'lgan. Ushbu davrda mamlakatda huquqiy tamoyillar taraqqiy etmagan davr hisoblanadi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish quvvatlarining kamligi va aholi daromadlarining pastligi. Uchinchidan, JST bilan muzokaralarda milliy manfaatlarining himoya qilinmaganligi. To'rtinchidan, aniq va puxta rivojlanish dasturlari ishlab chiqilmaganligi. JST davlatlarga iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash emas, balki tashqi savdoda adolatlilik hamda ochiqlik tamoyili asosida rivojlanish uchun imkoniyat beradi. Ushbu imkoniyat yirik iqtisodiyotga ega davlatlar uchun foydali hisoblanadi. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra davlatlarning YaIM miqdori 101 trln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston 80 mlrd. AQSh dollarida ko'rsatkich bilan 209 ta davlat ichida 72-o'rinni egallab turibdi.¹ O'zbekiston YaIM ko'rsatkichi katta iqtisodiyotga ega davlatlardan katta farq qiladi. JST ga a'zo bo'lishdagi imkoniyatlar hamda tahdidlarni tahlili quyidagicha:

Imkoniyatlar:

Bozorda raqobatbardosh tovarlarning kirib kelishi hamda narxning tushishi;

Tashqi bozorlarga eksport qilishdagi qulayliklarning vujudga kelishi;

Ishlab chiqarishga arzon xomashyo mahsulotlarining kirib kelishi;

Aholining farovonligi ortishi.

Tahdidlar:

Ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardosh bo'lmagan qismi zarar

¹ World Development Indicators database, World Bank, 1 July 2023

ko'rish yoki butunlay faoliyatini to'xtatishi;

Ishchi o'rinlarining qisqarishi;

Davlat daromadlarining kamayishi hamda boshqa davlatlarga bog'liqlik darajasini ortishi natijasida iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning kuchayishi;

Yuqoridagi tahdidlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston quyidagi ishlarni amalga oshirmoqda:

Ishlab chiqarish korxonalaridagi davlat ulushini xususiy sektorga sotish hamda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishda xususiy sektorga imtiyozlar berish;

Qonun hujjatlarida monopoliyani oldini olish hamda raqobatni ta'minlash vazifalarini ustuvor deb belgilash;

Davlatga investitsiyalar olib kirish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

Tashqi savdo faoliyatida bojlar darajasini qisqartirish hamda ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshlik muhitini ta'minlanishini qo'llab-quvvatlash;

Eksport qiluvchi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash hamda sohalarda ijobiy natijalar qayd etgan tadbirkorlarni tanlab olib ularga yordam berish mexanizmlarini joriy etish;

Yuqoridagilar ishlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni tatbiq etish zarur;

Tashqi iqtisodiy savdoda umumiy tarif darajasini 2% ga kamaytirish hamda notarif usullarini 10taga kamaytirish;

Ichki bozordagi raqobatbardosh sohalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni qisqartirish va sohani proteksionizm qilishni to'xtatish.

Rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish kabi ishlarni amalga oshirish zarur. Yuqoridagi harakatlarning asosiy maqsadi JST ga a'zo bo'lishdagi tahminiy tahdidlarni oldini olish hamda ularni yumshatishga qaratilgandir. Hozirgi vaqtgacha mamlakatda ushbu yo'nalishlarda maqsadli va samarali ishlar rejasi dasturlar amaliyotga tatbiq qilingan. Ushbu dasturlar iqtisodiy xavfsizlik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.